

## FRANSUZ TILI FONETIKASINI QIYOSLAB O‘RGANISHNING AHAMIYATI

**Eshquvvatova Diyora Baxtiyorovna**

O‘zDJTU Tarjimonlik fakulteti

Roman-german tarjimashunosligi kafedrasida

2-bosqich (Fransuz tili) yo‘nalishi talabasi

**Axmedov X.A.**

Ilmiy rahbar O‘zDJTU Tarjimonlik fakulteti o‘qituvchisi

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada fransuz tili fonetikasining o‘rganishda qiyosiy tahlilning ahamiyati hamda, fransuz tili fonetikasini o‘qitishda axborot texnologiyalardan foydalanishning samarasi xususida so‘z yuritilgan.

*Kalit so‘zlar:* fonetika, texnologiya, qiyosiy tahlil, tilshunoslik

## THE IMPORTANCE OF COMPARATIVE STUDY OF PHONETICS OF THE FRENCH LANGUAGE

*Abstract.* This article discusses the importance of comparative analysis in the study of French phonetics and the effectiveness of the use of information technology in the teaching of French phonetics.

*Keywords:* phonetics, technology, comparative analysis, linguistics

Hozirgi rivojlangan axborot texnologiya asrida biror chet tilini (fransuz, ingliz, nemis) bilish hech kimga zarar keltirmasa kerak. Shunday ekan boshqa fanlarning o‘z o‘qitish metodlari bo‘lganidek, chet tili o‘qitishning ham o‘ziga xos metodik uslublari, metodikasi mavjud. Biroq XVIII - asrgacha ayrim olimlar chet tilini

o'qitish metodikasini qiyosiy tilshunoslikning amaliy tadbiquidir deb qarasarlar, boshqalar ularni pedagogika fani deb hisobladilar.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan ko'rinib turibdiki, yillar davomida xorijiy til o'qitish metodikasi qiyosiy tipoligiya va pedagogika fanlarining bir bo'g'ini sifatida hisoblangan va taqbiq etilgan. Bu fikrning o'ziga xos mantiqiy ifodasi bordek ko'rinadi. Chunki ona tili bilan boshqa bir millatning ona tilini o'rganishda albatta ikki til bir-biriga qiyoslanadi, ularning o'ziga xos tomonlari farqlanadi. Masalan, fransuz hamda o'zbek tili fonetikasini qiyoslaymiz:

1. Fransuz tilida 16 ta, o'zbek tilida 6 ta unli bor;
2. Fransuz tilida burun unli tovushlari mavjud, o'zbek tilida esa yo'q;
3. Fransuz tilida so'z oxiridagi undoshlar jarangsizlanmaydi, o'zbek tilida esa ular jarangsizlashadi.
4. Fransuz tilida cho'ziq va qisqa unlilar bor, o'zbek tilida esa yo'q;
5. Ochiq unlilar fransuz tilida o'zbek tilidagidan ko'p;
6. Fransuz tilida 8ta, o'zbek tilida 2ta lablangan unli bor;

Fransuz tili fonetikasini o'rganishga bag'ishlangan mashg'ulotlarda hozirgi zamon axborot -texnologik vositalardan unumli foydalangan holda dars o'tish zamon talabidir. Binobarin, fransuz tili tovushlar sistemasining o'ziga xos murakkabliklari, uning o'zbek tili tovushlar sistemasidan ancha farq qilishi, fonetik mashg'ulotlar davomida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishni taqozo etadi va natijada o'quvchilarning fransuzcha tovushlarni me'yoriga yetkazib talaffuz qilish darajasiga erishish mumkin. Negaki aynan fransuz tilini o'rganayotgan talabalarda fransuzcha so'zlarni maromiga yetkazmasdan chala talaffuz qilish, so'z oxiridagi so'zlarni boshqa korrelyativ tovushlar bilan almashtirib yuborish, ba'zi talaffuzi qiyin bo'lgan tovushlarni umuman o'xshata olmaslik, fransuzcha so'zlarning o'qilish qoidalarini chalkashtirib yuborish, fransuz tili uchun muhim sanalgan bog'lanish va ulanish hodisalariga amal qilmaslik kabi holatlar juda ko'p uchraydi. Bularning barchasi fransuz tili fonetikasini to'g'ri o'zlashtira olmaslik natijasidir. Ushbu kamchiliklarni

bartaraf etish maqsadida dars jarayonini to'g'ri tashkil etish va darsda innovatsion texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, til bo'limlari ichida fonetika bo'limi nutqiy mahoratni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Chunki "Fonetika" tovushdagi muayyan bir so'zni o'zgartirish, tovushdan so'zlar hosil qilish, o'zakdosh qo'shimchadan qofiyadoh, ohangdosh so'zlar yasash, ularning imloviy ma'nolarini hamda ma'no guruhlari ustida ishlash o'quvchi so'z boyligini oshiradi. Nutqiy malakalarini shakllantiradi. Masalan, quyidagi berilgan sozni zinapoya shaklida kengaytirib, yangi so'zlarni yasash mumkin. Har bir so'z oldingisidan bir tovush bilan farqlanadi:

Hozirgi kunda fransuz tili fonetikasini o'zbek guruhi talabalariga o'rgatishdagi o'quvchining shaxsiy qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda u bilan ish olib boriladi va unga berilayotgan topshiriqni o'zlashtira olish qobiliyatiga qarab, sekinlik bilan amalga oshiriladi. Fransuz tili fonetikasini o'rganayotgan talaba avvalo, o'z ona tili fonetikasi yaxshi bilishi lozim. Chunki o'z ona tilini mukammal bilmay turib, xorijiy tillarni o'zlashtirishda qiyinchilikka duch keladi. Ushbu muammolarni vaqtida hal qilishda talabaga ikki tilning farqli va o'xshash tomonlarini, qiyosiy tahlilini to'g'ri tushuntirib bera olish pedagog zimmasidagi muhim vazifadir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Andreychikova A.P , Ubaydullayev M, Yusupova N.A "Fransuz tili fonetikasi"

O'zbekiston 1992-y

2. Bled E, Bled O. Orthographe, Grammaire, -Paris HACHETTE, 2009

3. D.A.Aliqulova , D.A. Joraboyeva , "Fransuz tili darsligi "